O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETI

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA HARBIY ALOQA INSTITUTI

"PROFESSIONAL ARMIYA BOSHQARUVINI RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALAR VA RAQAMLASHTIRISHNING O'RNI"

mavzusidagi

VIII XALQARO
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI



2026-YIL
15-APREL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT SHAHRI

Konferensiya tashkiliy qo‘mitasining

T A R K I B I:

general-mayor Iminov Z.R.	rais, O‘R mudofaa vazirning birinchi o‘rinbosari – Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig‘i
general-mayor Karshiyev H.A.	O‘R MV Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
general-mayor Shermatov F.O.	rais o‘rinbosari, O‘R HX va MU boshltg‘ining birinchi o‘rinbosari
polkovnik Mamadaliev U.O.	rais o‘rinbosari, O‘R MV Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i
podpolkovnik Raximov B.N.	rais o‘rinbosari, Harbiy institut boshlig‘i, t.f.d., professor
mayor Turayev B.Z.	Harbiy institut boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (O‘ va IIB), DSc, professor
podpolkovnik Murodov F.A.	Harbiy institut boshlig‘ining o‘rinbosari – shtab boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Shermatov F.T.	Harbiy institut boshlig‘ining o‘rinbosari T va MIB, DSc, dotsent
podpolkovnik Tangirov A.T.	71186 sonli harbiy qism komandiri
podpolkovnik Madolimov A.F.	Maxsus avariya tiklash boshqarmasi boshlig‘i
podpolkovnik Baxramov F.B.	Oliy ta’lim muassasasidan keyingi ta’lim bo‘lim boshlig‘i, h.f.n.
kapitan Boboev N.T.	ITL boshlig‘i, PhD
Qurbonov Sh.K.	ITL katta ilmiy xodimi, t.f.n, dotsent
polkovnik Mirjalolov O.A.	Kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
kapitan Yusupov B.K.	Kafedra boshlig‘i, PhD, professor
podpolkovnik Nishanov I.I.	Kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Kambarov Sh.A.	Kafedra boshlig‘i, h.f.n.
podpolkovnik Nurmetov B.S.	Kafedra boshlig‘i, PhD
podpolkovnik Tursunov Q.M.	Kafedra boshlig‘i, PhD, dotsent
podpolkovnik Tursunov T.M.	Kafedra boshlig‘i
podpolkovnik Turapov Sh.	Kafedrasi boshlig‘i, DSc, professor
podpolkovnik Umarov G‘.J.	Kafedra boshlig‘i, PhD
polkovnik Nurmatov T.Sh.	Malaka oshirish fakulteti boshlig‘i
podpolkovnik Valiev O.G.	Sikl boshlig‘i (kotib)
podpolkovnik Ugay A.P.	kafedra katta o‘qituvchisi (kotib)
mayor Xushnudov S.Sh.	Sikl boshlig‘i (kotib)
mayor Ro‘ziyev Sh.Yu.	HITL ilmiy xodimi

MUNDARIJA:

I SHO'BA. Raqamlashtirishda mashinali o'qitish va so'n'iy intellektning roli		13
1.	**БАЗАРОВ А.Б.** Моделирования принципов адаптивности, устойчивости и живучести системы связи на основе искусственного интеллекта	13
2.	**SHIRINBOYEV R.Sh., KUVANDIKOV J.T., XASANOV D.R., TOJIYEV M.R.** Tasvirlarni aniqlash va klassifikatsiya qilishda konvolyutsion neyron tarmoqlarning qo'llanilishi	19
3.	**O.MADATOV, O.ABDIROZIQOV** Tibbiyot muassasalarida statsionar bemorlar kasallik tarixini avtomatlashtirishning zamonaviy usullari	25
4.	**AXMADALIYEV O.YU.** Sun'iy intellektni harbiy sohada qo'llashning tendensiyalari va ustuvorligi	30
5.	**ВАЛИЕВ О.Г.** Цифровое обучение как современная форма трансформации образования	34
6.	**DEXKONOV O.R.** Klaster kompyuter tarmoqlarni ishlab chiqish	42
7.	**UMARALIYEV B.N.** Korporativ pochta tizimida konfidensial ma'lumotlarni boshqarish uchun neyrotarmoq modellarini joriy etish	49
8.	**ABDIROZIQOV O.SH.** Sun'iy intellekt yordamida avtomatik animatsiya yaratish texnologiyalari	53
9.	**AHMADALIYEV B.B** Tovush signalidan xususiyat ajratishda gammatonegram yaratish	58
10.	**SEIDULLAYEV M.K.** Raqamli texnologiylarda buyumlar interneti (IOT) ning o'rni	64
11.	**OLLABERGANOVA Z.S.** Harbiy boshqaruvda sun'iy intellektni qo'llash muammolari	70
12.	**AHMADALIYEV B.B** IOT tizimlarida PPG signallarini trenddan tozalash va fiziologik ko'rsatkichlarni aniqlash	83
13.	**TASHMANOV Y.B., MAMBETSHARIPOV Y.R.** Harbiy ta'lim muassasalarida favqulotda holatlar sodir bo'lganda shaxsiy tarkib evakuatsiyasini sun'iy intellektda rejalashtirish tahlili	88
14.	**ABIDOV A.A.** Akustik sensorlar yordamida aqlli boshqaruv tizimini yaratish (KY-038/KY-037 asosida)	94
15.	**BEGILOV B.** Mathematical modeling and cost optimization of wastewater treatment processes using evolutionary ai algorithms	100
16.	**KAMBOROV K.N.** Dinamik marshrutlash protokolini sun'iy intellekt asosida boshqaruvga moslashtirish	107

158.	**СИРОЖИТДИНОВ Э.С.** Тенденции развития беспилотных авиационных систем в Турции, России и Иране: сравнительный анализ	1088
159.	**TASHKENTBAYEV Z.A., NAJIMIDINOV Z.SH.** Rossiya va Ukraina qurolli mojarolarida quruqlikdagi qo‘shinlar havo hujumidan mudofaa vositasi “PANSIR-SM” zenit raketa-pushkali komplekslarining jangovar qo‘llanilishi	1094
160.	**ВАЛИЕВ О.Г.** Методические рекомендации по практике применения беспилотных летательных аппаратов	1101
161.	**ТУРСУНОВ К.М, УГАЙ А.П.** Влияние человеческого фактора на эффективность применения беспилотных летательных аппаратов	1108
162.	**DJURAEV R.Z.** The potential of artificial intelligence in assessing the professional competencies of teachers	1117
163.	**ALLAYAROV D.U.** Harbiy kadrlarni tayyorlashda raqamli va interaktiv pedagogik texnologiyalar orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish	1124
164.	**MAXMUDOV S.O.** FANET va VANET tarmoqlarida marshrutlash xavfsizligi muammolari	1129
165.	**TOSHTEMIROV M.S.** Zamonaviy harbiy majorolarda uchuvchisiz uchish apparatlari va dronlarni qo‘llashda ularga qarshi kurashish va ularni niqoblanish usullari va vositalari	1136
166.	**NAJIMOV N.K.** Mansabdor shaxs mas’uliyatini yanada oshirish ma’naviy yuksalish omili	1144
167.	**АХМЕДОВ Н.З.** Анализ современных практик подготовки операторов FPV-дронов: рекомендации по повышению эффективности обучения курсантов ВВУЗ Узбекистана	1151
168.	**SAYDJANOV F.M.** Psixik barqarorlik harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikni ta’minlovchi psixologik omil sifatida	1161
169.	**SAYDJANOV F.M.** Axborot-psixologik xurujlar sharoitida harbiy xizmatchilarning stressga bardoshliligini shakllantirish mexanizmlari	1166

PSIXIK BARQARORLIK HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNI TA’MINLOVCHI PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

podpolkovnik SAYDJANOV Farxod Madraximovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikl boshligi, dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning asab-psixik barqarorligi ularning tizimli stressga bardoshliligini ta’minlovchi integrativ-psixologik omil ekanligi nazariy va empirik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Qurolli Kuchlar tizimidagi 250 nafar turli unvon va yoshdagi harbiy xizmatchilar jalb qilingan. Asab-psixik barqarorlik darajasining intellektual, emotsional va xulq-atvor stress alomatlariga ta’siri korrelyatsion hamda regression tahlillar (Pearson r, R^2) yordamida o‘rganilgan. Olingan natijalar psixik barqarorlik ko‘rsatkichlarining yuqoriligi harbiylarda ekstremal xizmat sharoitlarida hamda axborot-psixologik bosim ostida yuqori adaptiv salohiyat va psixologik himoyani kafolatlashini empirik isbotlaydi.*

Kalit so‘zlar: *psixik barqarorlik, asab-psixik adaptatsiya, stressga bardoshlilik, kognitiv nazorat, emotsional o‘z-o‘zini boshqarish, korrelyatsiya tahlili, regression model.*

Аннотация. *В данной статье теоретически и эмпирически исследовано, что нервно-психическая устойчивость военнослужащих является интегративно-психологическим фактором, обеспечивающим их системную стрессоустойчивость. В качестве объекта исследования привлечены 250 военнослужащих различных званий и возрастов. Влияние уровня нервнопсихической устойчивости на интеллектуальные, эмоциональные и поведенческие симптомы stressa изучено с помощью корреляционного и регрессионного анализа (Пирсона r, R^2). Полученные результаты эмпирически доказывают, что высокие показатели психической устойчивости гарантируют военнослужащим высокий адаптивный потенциал в экстремальных условиях службы и под информационно-психологическим давлением.*

Ключевые слова: *психическая устойчивость, нервно-психическая адаптация, стрессоустойчивость, когнитивный контроль, эмоциональная саморегуляция, корреляционный анализ, регрессионная модель.*

Abstract. *This article theoretically and empirically investigates that the neuropsychic stability of military personnel is an integrative-psychological factor*

ensuring their systemic stress resistance. As the object of the research, 250 military personnel of various ranks and ages within the Armed Forces system were involved. The influence of the level of neuropsychic stability on intellectual, emotional, and behavioral stress symptoms was studied using correlation and regression analyses (Pearson r, R^2). The obtained results empirically prove that high indicators of mental stability guarantee military personnel high adaptive potential and psychological defense under extreme service conditions and information-psychological pressure.

Keywords: *mental stability, neuropsychic adaptation, stress resistance, cognitive control, emotional selfregulation, correlation analysis, regression model.*

Zamonaviy harbiy faoliyat shaxs psixikasiga o‘ta yuqori va favqulodda talablar qo‘yishi bilan ajralib turadi. Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining xizmat vazifalarini bajarish sharoitlari ko‘p hollarda hayot va sog‘liq uchun bevosita xavf-xatarlar, yuqori jismoniy hamda aqliy zo‘riqishlar, ma’lumotlarning noaniqligi va surunkali emotsional bosim bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi va jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishi faqatgina ularning taktik-texnik bilimlari bilan emas, balki ekstremal faktorlarga nisbatan psixologik chidamliligi va barqarorligi bilan belgilanadi.

Psixologiya fanida stressga bardoshlilik (resilience) ko‘p komponentli tizim sifatida qaraladi. Biroq, ushbu tizimning markazida shaxsning umumiy ichki asab-ruhiy salohiyatini muvozanatda saqlab turuvchi fundamental yadro – "psixik barqarorlik" omili turadi. Psixik barqarorlik shaxsning tashqi destruktiv ta’sirlar, kutilmagan favqulodda vaziyatlar va axborot-psixologik xurujlar ostida o‘z funksional holatini, kritik tafakkurini va maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvorini yo‘qotmaslik qobiliyatini ifodalaydi. Shuning uchun harbiy xizmatchilarda psixik barqarorlikning ichki psixofiziologik va subyektiv mexanizmlarini, uning stress alomatlarini neytrallashtirishdagi rolini empirik o‘rganish harbiy psixologiyaning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi

Shaxsning psixik barqarorligi va asab-psixik adaptatsiyasi muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. G. Selyening klassik adaptatsiya nazariyasiga ko‘ra, stress organizmning har qanday tashqi talabga nisbatan nospetsifik javob reaksiyasidir. Harbiy sohada asab-psixik barqarorlik (nervno- psixicheskaya ustoychivost) tushunchasi ko‘pincha shaxsning ekstremal muhitga moslashish salohiyatini baholashda asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. B.Botirov va boshqa respublikamiz olimlari harbiy xizmatchilar faoliyatida

ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va irodaviy sifatlarning stressni kamaytirishdagi o'rnini ko'rsatib o'tganlar.

Shuningdek, L.Kitayev-Smik o'zining stress antropologiyasiga oid ishlarida subyektning uzoq muddatli ekstremal muhitda faoliyat ko'rsatishi uning psixologik himoya tizimlarini to'liq safarbar etishini ta'kidlaydi. Kognitiv psixologiyada (R.Lazarus, S.Folkman) stressga bardoshlilik bevosita shaxsning копинг-стратегиялари (engish strategiyalari) va vaziyatni anglangan holda kognitiv nazorat qilishi bilan bog'lanadi. Ushbu tadqiqotlarning umumiy xulosasi shuni ko'rsatadiki, psixik barqarorlik tashqi muhitdan keladigan destruktiv signallarni qayta ishlashda kognitiv va emotsional sferalar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlovchi integrativ omildir [2].

Tadqiqot metodlari va tanlanmasi

Tadqiqotimizning empirik bazasini Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy xizmatchilar tashkil etdi. Jami tanlanma hajmi 250 nafar respondentdan iborat bo'lib, ular yoshi, unvoni va xizmat stajiga ko'ra differensiallashtirildi. Tadqiqotda ishtirok etgan harbiylar uchta guruhga bo'lindi: ofitserlar tarkibi (64 nafar), shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilar (22 nafar) va kursantlar (164 nafar).

Harbiy xizmatchilarning asab-psixik barqarorligini hamda individual stressga bardoshlilik darajalarini o'lchash maqsadida quyidagi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalar majmuasi qo'llanildi: 1) Harbiy-tibbiy akademiyaning "Prognoz" asab-psixik barqarorlikni aniqlash metodikasi; 2) R.Lazarusning "Koping- strategiyalar" (engish usullari) so'rovnomasi; 3) Shaxsning intellektual, emotsional, xulq-atvor va fiziologik stress belgilari darajasini baholovchi kompleks so'rovnomalar. Olingan birlamchi empirik ma'lumotlar Excel va SPSS dasturlari yordamida statistik tahlildan o'tkazildi. Guruhlararo farqlarni topish uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti va chiziqli regression tahlil usullari qo'llanildi [3].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili [4].

Tadqiqotning dastlabki bosqichida respondentlarning "Prognoz" metodikasi bo'yicha olingan asab-psixik barqarorlik (APB) ko'rsatkichlari bilan ularning turli stress alomatlarini boshdan kechirish darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

pirsondagi chiziqli korrelyatsiya (Pearson r) yordamida tekshirildi. Tahlil natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Asab-psixik barqarorlik (APB) ko'rsatkichlari va subyektiv stress alomatlari o'rtasidagi Pearson korrelyatsiya tahlili (N=250)

O‘rganilayotgan psixologik parametrlar	Asab-psixik barqarorlik (APB) ko‘rsatkichi (r)	Statistik ahamiyatlilik darajasi (p)	Bog‘liqlik xarakteri
Intellektual stress alomatlari	-0.542	0.001	Teskari, kuchli
Emotsional xavotirlanish va qo‘rquv	-0.615	0.0001	Teskari, o‘ta kuchli
Xulq-atvor dezadaptatsiyasi	-0.487	0.005	Teskari, mo‘tadil
Fiziologik zo‘riqish belgilari	-0.421	0.012	Teskari, mo‘tadil

1-jadvalda keltirilgan empirik ko‘rsatkichlar shuni isbotlaydiki, harbiy xizmatchilarning asab-psixik barqarorligi (APB) darajasi barcha turdagi salbiy stress reaksiyalari bilan yuqori darajadagi ishonchli teskari korrelyatsiyaga ega. Ayniqsa, emotsional xavotirlanish (r=-0.615, p=0.0001) va intellektual stress alomatlari (r=-0.542, p=0.001) bilan bog‘liqlik o‘ta yuqoridir. Bu shuni anglatadiki, harbiy xizmatchining ichki psixik barqarorlik salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, u ekstremal vaziyatlarda va axborot tahdidlari sharoitida vahima, emotsional portlashlar, kognitiv blokirovkalar (fikrlashning qotib qolishi) va noto‘g‘ri qaror qabul qilish kabi salbiy holatlardan shunchalik yuqori darajada himoyalangan bo‘ladi.

Psixik barqarorlik omilining stressga bardoshlilikni ta’minlashdagi ulushini aniqroq baholash maqsadiga erishish uchun chiziqli regression tahlil (Linear Regression) o‘tkazildi. Bunda asab-psixik barqarorlik mustaqil o‘zgaruvchi (X), umumiy stressga bardoshlilik darajasi esa tobe o‘zgaruvchi (Y) sifatida belgilandi. Regression model natijalari quyidagi mantiqiy-matematik tenglama ko‘rinishida shakllantirildi:

$$SB = \beta_0 + \beta_1 \times APB + \varepsilon$$

$$SB = 1.42 + 0.68 \times APB$$

Ushbu regression modelning determinatsiya koeffitsienti R^2 = 0.462 ni tashkil etdi (F=42.35, p=0.0001). Bu shuni anglatadiki, harbiy xizmatchilardagi umumiy stressga bardoshlilik ko‘rsatkichining 46.2 % i to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning ichki psixik barqarorlik darajasi bilan belgilanadi. Qolgan 53.8 % ulush esa boshqa tashqi faktorlar (ijtimoiy-moddiy ta’minot, komandirlik uslubi, harbiy ixtisoslik toifasi va muhit sharoitlari) hisobiga to‘g‘ri keladi. Tenglamadagi Pi = 0.68 koeffitsienti asab- psixik barqarorlikning har bir birlikka ortishi harbiylarda stressga bardoshlilik refleksining 0.68 birlikka ijobiy tomonga siljishini kafolatlashini ko‘rsatadi [5].

Muhokama

Olingan natijalar harbiy psixologiya sohasidagi tizimli-strukturaviy qarashlarni to‘la tasdiqlaydi. Psixik barqarorlik shunchaki barqaror holat emas, balki u kognitiv nazorat (cognitive control) va emotsional o‘z-o‘zini boshqarishning (emotional selfregulation) dinamik integratsiyasidir. Individual tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yuqori APB ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan ofitserlar va shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilar ekstremal vaziyatlarda "muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan" (problem-focused coping) adaptiv strategiyalarni tanlaydilar. Aksincha, APB ko‘rsatkichlari past bo‘lgan guruhlar (asosan kursantlar) ko‘p hollarda "emotsiyaga yo‘naltirilgan" yoki xulq-atvordan qochish (avoidance) strategiyalariga moyillik ko‘rsatadilar [6].

Psixofiziologik nuqtai nazardan, yuqori psixik barqarorlik tashqi stressor ta’sirida neyroendokrin tizimning ortiqcha faollashuvini tormozlaydi. Bu esa harbiylarda intellektual sferada tanqidiy fikrlashni, axborot manipulyatsiyalarini (feyklarni) oson ajratishni va murakkab operativ sharoitda taktik jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi[7]. Shuning uchun harbiy qismlarda shaxsiy tarkibning psixik barqarorligini shunchaki diagnostika qilish bilan cheklanmasdan, uni maxsus treninglar yordamida tizimli rivojlantirish zarur.

Xulosa va amaliy tavsiyalar.

O‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Psixik barqarorlik harbiy xizmatchilar shaxsida tashqi ekstremal, jangovar hamda destruktiv axborot-psixologik stressorlarning salbiy ta’sirini kamaytiruvchi va neytrallashtiruvchi eng asosiy integrativ-psixologik omil hisoblanadi.

2. Korrelyatsion tahlil natijalari asab-psixik barqarorlik darajasining emotsional xavotirlanish (r=-0.615) va intellektual stress (r=-0.542) bilan yuqori darajada teskari bog‘liqlikka ega ekanligini empirik asosladi.

3. Regression tahlil modeli (R^2=0.462) harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikning qariyb yarmi (46.2 %i) ularning ichki asab-psixik barqarorlik salohiyati bilan determinatsiyalanishini ko‘rsatdi.

Amaliy tavsiyalar: Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qismlarda va oliy harbiy ta’lim muassasalarida shaxsiy tarkibning asab-psixik barqarorligini oshirish uchun kundalik xizmat faoliyatiga emotsional o‘z-o‘zini boshqarish (autogen treninglar), kognitiv tanqidiylikni rivojlantirish (feyk axborotlar bilan ishlash bo‘yicha keys-stadilar) хамда "Jangovar chaqiriq" kabi refleksiv guruh jipsligi mashqlarini tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 iyundagi "Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-267-sonli Qarori.
2. Botirov B.Sh. Harbiy xizmatchilar shaxsida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va barqarorlik dinamikasi. – Toshkent: Fan, 2023. – 145 b.
3. Kitayev-Smik L.A. Psixologiya stressa. Psixologicheskaya antropologiya stressa. – M.: Akademicheskiy proekt, 2009. – 943 s.
4. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984. – 456 p.
5. Selye H. Stress without Distress. – Philadelphia: J.B. Lippincott Co., 1974. – 171 p.
6. Saydjanov F.M. Axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurashishda harbiy xizmatchilarni stressga bardoshliligini ta’minlashning psixologik omillari // Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2026. – 46 b.
7. Yeliseyev O.P. Praktikum po psixologii lichnosti. – SPb.: Piter, 2010. – 512 s.

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLAR SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNING STRESSGA BARDOSHLILIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

podpolkovnik SAYDJANOV Farxod Madraximovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikl boshlig‘i, dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy axborot-psixologik xurujlar sharoitida harbiy xizmatchilar shaxsida stressga bardoshlilikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari tizimli-strukturaviy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tajriba guruhlari sifatida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutining 250 nafar harbiy xizmatchisi (ofitserlar, shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilar va kursantlar) jalb etilgan. Shaxsning suggestivlik va muhitga tobelik xususiyatlarining destruktiv axborot ta'siriga korrelyatsiyasi tahlil qilinib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “G‘oyaviy jangchi” korreksion dasturi hamda "Jangovar chaqiriq" treningining empirik samaradorligi matematik-statistik mezonlar (Wilcoxon, Kruskal-Wallis) yordamida isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *axborot-psixologik xuruj, stressga bardoshlilik, kognitiv baholash, emotsional regulyatsiya, suggestivlik, muhitga tobelik, G‘oyaviy jangchi, Jangovar chaqiriq, Kruskal-Wallis testi.*

Аннотация. *В данной статье на основе системно-структурного подхода исследованы психологические механизмы формирования стрессоустойчивости военнослужащих в условиях современных информационно-психологических атак. В качестве экспериментальной выборки привлечены 250 военнослужащих (офицеры, военнослужащие по контракту и курсанты) Военного института информационно-коммуникационных технологий и связи. Проанализирована корреляция между показателями внушаемости, полезависимости и воздействием деструктивной информации. С помощью математико-статистических критериев (Вилкоксона, Краскела-Уоллиса) доказана эмпирическая эффективность разработанной автором психокоррекционной программы «Идеологический боец» и тренинга «Боевой призыв».*

Ключевые слова: *информационно-психологическая атака, стрессоустойчивость, когнитивное оценивание, эмоциональная регуляция, внушаемость, полезависимость, Идеологический боец, Боевой призыв, тест Краскела-Уоллиса.*

Abstract. *This article investigates the psychological mechanisms of developing stress resistance in military personnel under conditions of modern information-psychological attacks based on a systemic- structural approach. The experimental sample involved 250 military personnel (officers, contract servicemen, and cadets) from the Military Institute of Information and Communication Technologies and Communications. The correlation between suggestibility, field dependence, and the impact of destructive information was analyzed. Using mathematical-statistical criteria (Wilcoxon, Kruskal-Wallis), the empirical effectiveness of the "Ideological Warrior" psychocorrective program and "Battle Cry" training developed by the author was proved.*

Keywords: *information-psychological attack, stress resistance, cognitive appraisal, emotional regulation, suggestibility, field dependence, Ideological Warrior, Battle Cry, Kruskal-Wallis test.*

Hozirgi globallashuv va keskin geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida gibrid urushlar hamda axborot-psixologik qarama-qarshiliklar davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Axborot makonida feyk yangiliklar, manipulyativ kontentlar, dushman kuchlarining qudratini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi video-materiallar hamda qo‘shinlar tarkibida ishonchsizlik, tushkunlik va ruhiy

parokandalik keltirib chiqarishga qaratilgan dezinformatsion xurujlar strategik xarakter kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini va intellektual salohiyatini oshirishga doir qator qarorlarida Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibida tashqi mafkuraviy va axborot tahdidlariga nisbatan mustahkam psixologik immunitetni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan [1].

Harbiy faoliyat tabiati o‘ta ekstremalligi va doimiy psixofiziologik zo‘riqishlar bilan kechishi sababli, uning samaradorligi shaxsiy tarkibning asab-psixik barqarorligiga uzviy bog‘liqdir. Biroq, an’anaviy tadqiqotlarda aksariyat hollarda stressga bardoshlilikni ta’minlovchi faqat tashqi "omillar" o‘rganilib, shaxsning ichki psixodinamik, kognitiv va emotsional munosabatlarini qamrab oluvchi yaxlit "mexanizmlar" tizimi e’tibordan chetda qolib kelayotgan edi. Mazkur tadqiqot axborot-psixologik xurujlar ta’sirida harbiy xizmatchilar subyektiv olamida kechadigan integrativ psixologik jarayonlarni tizimli ochib berish va tizimli mexanizmlarni shakllantirishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arb va MDH psixologiya fanida stress va unga bardoshlilik muammosi asosan R.Lazarusning kognitiv-transaktsiyaviy nazariyasi, G.Selening umumiy adaptatsiya sindromi hamda L.Kitayev-Smikning stress psixologiyasiga oid konseptual qarashlariga tayanadi. Kognitiv-transaktsiyaviy yondashuvga ko‘ra, stress o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki tashqi stressor (tahdid) va shaxsning ushbu tahdidni subyektiv baholashi hamda o‘z ichki resurslarini tahlil qilishi o‘rtasidagi munosabat mahsulidir. Harbiy psixologiya sohasida G.Alimkulova va J.Joldasov kabi Markaziy Osiyo olimlari tomonidan harbiy jamoalardagi guruh koheziyasi, ekstremal sharoitlarda shaxs xulq-atvorining korrelyatsiyasi tadqiq etilgan bo‘lsa-da, aynan raqamli axborot xurujlari va manipulyatsiyalari kontekstidagi psixologik himoya mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan [3].

Shaxsning tashqi axborot manipulyatsiyalariga nisbatan moyilligini belgilovchi individual-psixologik xususiyatlar sirasiga K.Gottshaldt va H.Witkin tomonidan asoslangan “muhitga tobelik” (field dependence) hamda O.P.Yeliseyev tomonidan tadqiq etilgan “suggestivlik” (vunuquvchanlik) darajalari kiradi. Muhitga tobe va yuqori suggestivlikka ega bo‘lgan shaxslar destruktiv axborot bosimi ostida o‘z mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini tez yo‘qotadilar, bu esa ularda intellektual va emotsional stress belgilarining keskin ortishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning empirik qismi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va

harbiy aloqa institutining bazasida tashkil etildi. Eksperimentda jami 250 nafar respondent ishtirok etdi. Strukturaviy mutanosiblik va tahliliy aniqlikni ta’minlash maqsadida respondentlar uchta toifaga ajratildi: 1-toifa – ofitserlar tarkibi (64 nafar, umumiy tanlanmaning 26 %i), 2-toifa – shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilar (KBHX) tarkibi (22 nafar, umumiy tanlanmaning 9 %i) hamda 3-toifa – eng ko‘p sonli guruh bo‘lgan kursantlar tarkibi (164 nafar, umumiy tanlanmaning 65 %i).

Tadqiqotda shaxsning individual xususiyatlari va stress reaksiyalarini o‘lchash maqsadida quyidagi metodologik apparat qo‘llanildi: K.Gottshaldtning "Muhitga tobelikni aniqlash" testi, O.P.Yeliseyevning "Suggestivlik darajasini baholash" so‘rovnomasi, B.Botirovning "Ma’naviy qadriyatlarni baholash" metodikasi hamda subyektiv stress turlarini o‘lchovchi kompleks so‘rovnomalar. Axborot-psixologik xurujning ta’siri obyekt xuruj hajmi sifatida emas, balki subyektning destruktiv axborot bilan to‘qnashganda boshdan kechiradigan intellektual, emotsional, xulqiy va fiziologik stress belgilari dinamikasi orqali o‘lchandi. Olingan natijalarning ishonchliligi SPSS dasturiy paketi yordamida Kruskal-Wallis N-mezoni va Wilcoxon T-mezoni orqali matematik-statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili [4].

Dastlabki bosqichda harbiy xizmatchilarning suggestivlik (ishonuvchanlik) va muhitga tobelik xususiyatlari ularning axborot xurujlariga nisbatan zaifligini belgilovchi asosiy determinantlar ekanligi aniqlandi. Kruskal-Wallis testi yordamida uchta toifa o‘rtasidagi subyektiv stress ko‘rsatkichlari qiyosiy o‘rganilganda, kursantlar tarkibida emotsional va intellektual stress darajasi ofitserlarga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi ($p<0.05$).

1-jadval. Harbiy xizmatchilar toifalari kesimida boshlang‘ich stress ko‘rsatkichlarining Kruskal-Wallis N- mezoni bo‘yicha qiyosiy tahlili

Stress turlari (parametrlar)	Ofitserlar (N=64) O‘rtacha rang	KBHX (N=22) O‘rtacha rang	Kursantlar (N=164) O‘rtacha rang	Asimptotik ahamiyatlilik (p)
Intellektual stress	98.45	112.30	138.15	0.012
Emotsional stress	92.10	108.45	142.60	0.004
Xulq-atvor stressi	105.20	115.60	131.40	0.068
Fiziologik stress belgilar	101.35	110.15	134.80	0.025

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, intellektual (p=0.012) va emotsional (p=0.004) stress ko‘rsatkichlarida guruhlararo farq yuqori darajada ishonchli. Bu holat yosh, unvon va xizmat yillarining kamligi sababli kursantlar guruhining tashqi axborot manipulyatsiyalariga nisbatan yuqori ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Ular axborot tarkibidagi feyk va haqiqiy faktlarni ajratishda kognitiv qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa emotsional sohada xavotirlanish sindromini va asabiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot doirasida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarda barqaror stressga bardoshlilikni shakllantirish maqsadida to‘rtta o‘zaro uzviy bog‘liq mexanizmdan iborat Psixologik strukturali-functional model ishlab chiqildi. Model tarkibiga quyidagilar singdirildi:

1) *Kognitiv-tahliliy mexanizmlar:* axborotni interpretatsiya qilish, destruktiv mazmunni filtratsiya qilish va kritik fikrlashni rivojlantirish;

2) *Emotsional-irodaviy mexanizmlar:* affektiv zo‘riqishni jilovlash, qo‘rquv va xavotir ustidan nazorat hamda emotsional barqarorlik;

3) *Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar:* jamoaviy identifikatsiya, jamoaviy kohcziya (jipslik) hamda o‘zaro ishonch muhiti;

4) *Ma’naviy-axloqiy mexanizmlar:* ichki motivatsiya, harbiy qasamyodga sodiqlik, vatanparvarlik va ma’naviy qadriyatlar tayanchi.

Ushbu model prinsiplari asosida ishlab chiqilgan "G‘oyaviy jangchi" psixokorreksion dasturi va kundalik "Jangovar chaqiriq" (audial chorlovlar, guruh jipsligi mashqlari) treningi 6 oy davomida eksperimental guruhlarda muntazam ravishda qo‘llanildi. Dasturning yakuniy samaradorligi Wilcoxon T-mezoni yordamida tekshirildi (2-jadval).

2-jadval. Psixokorreksion dasturdan oldingi va keyingi stress ko‘rsatkichlarining Wilcoxon T-mezoni bo‘yicha dinamikasi (N=250)

Baholanayotgan parametrlar	Dasturgacha (O‘rtacha qiymat)	Dasturdan keyin (O‘rtacha qiymat)	Z-statistika ko‘rsatkichi	Statistik ahamiyatlilik (p)
Intellektual stress daraiasi	3.84	2.12	-4.85	0.0001
Emotsional xavotirlanish	4.15	2.35	-5.12	0.0001
Suggestivlikka beriluvchanlik	3.92	2.45	-4.32	0.001
Guruh jipsligi (kohcziya)	6.12	8.45	-3.98	0.002

2-jadvalda keltirilgan statistik siljishlar (p=0.0001) ishlab chiqilgan model va uning asosida yaratilgan psixokorreksion dasturning o‘ta yuqori samaradorlikka ega ekanligini anglatadi. Harbiylarda intellektual stress va emotsional xavotirlanish ko‘rsatkichlari deyarli ikki barobarga kamaygan, tashqi axborot ta’sirlariga suggestiv beriluvchanlik ko‘rsatkichlari pasaygan. Guruh jipsligi ko‘rsatkichining 6.12 dan 8.45 gacha sezilarli ortishi (p=0.002) esa harbiy jamoalarda o‘zaro hamkorlik va kollektiv himoya mexanizmlari muvaffaqiyatli integratsiyalashganligidan dalolat beradi [5].

Olingan empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurashishda stressga bardoshlilik faqat subyektning individual xususiyati bo‘lmay, balki tizimli shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyadir. Dastur doirasida o‘tkazilgan autosuggestion, reflektiv va kognitiv mashqlar harbiy xizmatchilarda destruktiv axborotni qabul qilishning birinchi fazasidayoq (kognitiv baholash bosqichida) neytrallashtirish refleksini shakllantirgan. Ya’ni, harbiylar axborot mazmunini emotsional emas, balki ratsional-tanqidiy tahlil qila boshlaganlar. Bu esa bosh miya limbik tizimidagi amigdala qo‘zg‘alishini (qo‘rquv, vahima refleksini) tormozlab, prefrontal qobiqning analitik funksiyalarini faollashtiradi [6].

Ushbu jarayonlarning mantiqiy modelini quyidagi funksional bog‘liqlik ko‘rinishida ham ifodalash mumkin:

$$SB = f(KT \times ER \times PR) / S_g$$

Bu yerda: SB – stressga bardoshlilik ko‘rsatkichi; KT – kognitiv tanqidiylik; ER – emotsional regulyatsiya; PR – shaxsiy-ma’naviy resurslar; S_g – shaxsning tashqi muhit va axborot ta’siriga suggestiv tobelik darajasi.

Ushbu mantiqiy qonuniyatga ko‘ra, shaxsning kognitiv-tanqidiy tafakkuri va emotsional o‘z-o‘zini boshqarishi qanchalik yuqori bo‘lsa va uning suggestiv tobelik darajasi qanchalik past bo‘lsa, axborot tahdidlari sharoitida umumiy stressga bardoshlilik ko‘rsatkichi shunchalik yuqori bo‘ladi[7,8]. Tajriba natijalari ushbu

modelning barcha qismlari amaliyotda to‘g‘ri ishlaganligini empirik jihatdan dalilladi.

Xulosa va tavsiyalar.

O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar asosida quyidagi qat’iy ilmiy xulosalarga erishildi:

1. Harbiy xizmatchilarning axborot-psixologik xurujlarga nisbatan barqarorligi ularning faqat tashqi omillariga emas, balki shaxs ichki tuzilmasidagi kognitiv- tahliliy, emotsional-irodaviy, jamoaviy va ma’naviy-axloqiy mexanizmlarning yaxlit integratsiyasiga bog‘liqdir.

2. Tadqiqot obyekti hisoblangan aloqa va IT yo‘nalishidagi harbiy

xizmatchilar (250 nafar respondent) o‘rtasida o‘tkazilgan qiyosiy tahlil, kursantlar guruhining individual suggestivlik va muhitga tobelik xususiyatlari sababli axborot xurujlariga ko‘proq moyil ekanligini ko‘rsatdi, bu esa maxsus maqsadli tayyorgarlik tizimini talab etadi.

3. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Psixologik strukturali-functional model" hamda uning asosida yaratilgan "G‘oyaviy jangchi" va "Jangovar chaqiriq" korreksion dasturlari harbiylarda intellektual-emotsional stress darajasini pasaytirishda va jamoaviy jipslik ko‘rsatkichlarini oshirishda statistik jihatdan ishonchli ($p<0.05$) yuqori samaradorlik namoyon etdi.

Amaliy tavsiyalar: Qurolli Kuchlar qo‘mondonlik tarkibiga va harbiy psixologlarga shaxsiy tarkibning kundalik jangovar tayyorgarlik rejasiga haftalik "Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik kuni" doirasida axborot feyklarini aniqlash bo‘yicha keys-tahlil mashg‘ulotlarini hamda guruh birligini mustahkamlovchi audial va refleksiv treninglarni doimiy kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentabrdagi "Qurolli Kuchlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-371-sonli Qarori.

2. Alimkulova G.K. Psixologicheskiye osobennosti formirovaniya stressoustoychivosti voennoslujashix // Voprosy voennoy psixologii. – Almaty, 2021. – S. 112-118.

3. Botirov B.Sh. Harbiy xizmatchilar shaxsida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar diagnostikasi. – Toshkent: Fan, 2023. – 145 b.

4. Gottshaldt K. Über die Feldabhängigkeit va individual-psixologik xususiyatlar tahlili // Psixologicheskiy jurnal. – M., 2019. – №2. – S. 45-58.

5. Kitaycv-Smik L.A. Psixologiya stressa. Psixologicheskaya antropologiya stressa. – M.: Akademicheskiy proekt, 2009. – 943 s.

6. Lazarus R.S. Emotion and Adaptation. – New York: Oxford University Press, 1991. – 557 p.

7. Saydjanov F.M. Harbiy xizmatchilar kasbiy kognitiv sifatlari va kritik fikrlash dinamikasi // Bo‘lajak kadrlarni ruhiy tayyorgarligining psixologik jihatlari. Xalqaro konferensiya to‘plami. – Toshkent: JXU, 2025. – B. 306-313.

8. Yeliseyev O.P. Praktikum po psixologii lichnosti. – SPb.: Piter, 2010. – 512 s.